



# TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023- YIL YANVAR - AVGUST  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi  
boshqarmasi  
Tel.: 71-203-88-07

## Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2023- yil yanvar – avgust oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar – avgust oylarida shahar korxonalaridan tomonidan 76,6 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar - avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 105,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (82,7 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 63,4 trln. so'mni tashkil etdi.




*B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.*

### **Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da**




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 7,2 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 32,1 % ga, o'sishi kuzatildi. Tog'kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 1,8 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 8,1 % ga pasayish kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,2 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 13,3 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,**  
(yanvar - avgust oylarida, % da)



**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar - avgust	2023- yil yanvar - avgust	Farqi +/-
Neft, ming t.	434,9	447,1	12,2
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	23727,2	21860,8	-1866,4
Gaz kondensati, ming t.	485,2	435,6	-49,6
Chaqiq tosh ming t.	490,3	456,4	-33,9
Shagʻal t.			

**Ishlab chiqaradigan sanoat**



2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 63,4 trln. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,7 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar - avgust oylarida, % da)**



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,3 % ni (2022- yilning yanvar – avgust oylarida – 8,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 23,6 % (20,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 31,8 % (29,9%) va quyi texnologiyalisi – 40,2 % (41,5%)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalari ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 27,4 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 16,7 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,4 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,6 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini



ishlab chiqarishning ulushi – 8,4 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 123,4 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


2023- yilning yanvar - avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 90956 tonna Yumshoq bug'doy va spelta uni mahsuloti (5,7 marta ga oshgan), 7561,4 tonna Quyiltirilmagan va shakar qo'shilmagan, yog'liligi 6 % dan yuqori sut va qaymoq mahsulotlari (2,8 marta ga oshgan), 1785 tonna paketlar va paketlarni qadoqlash (46,1 %) va 923 tonna Yarim tsellyulozadan tayyorlangan gofirovka qilish uchun qog'oz (24,9%) hamda 12928,5 tonna mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj mahsulotlari (20,0%) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

### O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


O'simlik yog'i (tozalangan)	Margarin va yormalar	Yumshoq bug'doy va spelta uni
-----------------------------	----------------------	-------------------------------



Pivo	Aroq	Uzum vinosi
------	------	-------------



Tamaki mahsulotlari	Paxta kalavasi
---------------------	----------------



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini**  
**tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**


<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>2022- yil yanvar - avgust</b>	<b>2023- yil yanvar - avgust</b>	<b>Farqi +/-</b>
<b>Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna.</b>	39,9	90,9	51,0
<b>Paxtadan yigirilgan ip, ming tonna.</b>	31,0	22,9	-7,1
<b>Margarin va yormalar tonna.</b>	5417	2868,4	-2548,6
<b>Pivo – mln litr</b>	57,5	70,4	12,9
<b>Traktorlar - dona</b>	114,0	10,0	-104,0
<b>Sovutgich va muzlatgichlar - ming dona</b>	491,7	537,2	45,5
<b>Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.</b>	10704,0	11436,0	732
<b>Tamaki mahsulotlari, mln. dona</b>	1366,3	1201,2	-165,1

## Metallurgiya sanoati

( yanvar - avgust )



**FHI**  
**% da**



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-avgust oylarida metallurgiya sanoati ulushi 15,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 39,8 ga ko'paygan bo'lsa, 2023 yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 16,7 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 113,3 % va ishlab chiqarish hajmi 10611,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

( yanvar - avgust oylarida )

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-avgust oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 5,2 % ga kamaygan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 101,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2763,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**FHI**  
**% da**






## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - avgust oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,7 %, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 4,9 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 8080,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**FHI**  
% da



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - avgust oylarida)

**FHI**  
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 92,4 % ga oshgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar - avgust oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 98,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 7302,4 mlrd. so'mni


tashkil etdi.

### **To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati**

*(yanvar - avgust oylarida)*


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 103,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar - avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 1,5 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3405,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### **Kiyim ishlab chiqarish sanoati**

*(yanvar – avgust oylarida)*




2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 103,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni, fizik hajm indeksi 110,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1191,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (yanvar - avgust oylarida)

2022- yilning yanvar - avgust oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 90,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 % ni, fizik hajm indeksi 34,3 % ga ko'paydi, ishlab chiqarish hajmi esa 2494,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish (yanvar - avgust oylarida)



2022 - yilning yanvar - avgust oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 249,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 59,9 % kamaygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 245,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish (yanvar - avgust oylarida)



2022- yilning yanvar - avgust oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirka-malar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 133,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,4 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 96,5% ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 2822,0mlrd.so'mni tashkil etdi.


### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish (yanvar - avgust oylarida)

2022- yilning yanvar - avgust oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plast-massa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 111,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar - avgust oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,5 % ni, fizik hajm indeksi 111,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2841,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI  
% da




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar - avgust oylarida

trln.  
so'm



FHI  
% da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,4 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,1 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar - avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 8,1 % ga kamayganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**  
(yanvar - avgust oylarida, % da)




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-avgust	2023- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	290,6	2559,1	2268,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	7979,1	6991,6	-987,5
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, mln so 'm.	555,6	618,1	62,5

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

yanvar - avgust oylarida



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,6 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**  
(yanvar –avgust oylarida, % da)




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-avgust	2023- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, mlrd.so‘m	108,7	121,9	13,2
(Xavfli bo‘lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna	220,4	197,9	-22,5
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta‘minlash, mlrd. so‘m	179,4	220,3	40,9

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar 11,1 % ga , oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 12,1 % ga , tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta‘minlash 22,8 % ga, o‘sinh kuzatildi.

**Iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 23,9 trln.so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,6 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 31,2 % ni tashkil etdi.



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 28,3 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 36,9 % ni tashkil etdi.

**Toshkent shahrida faoliyat koʻrsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2023- yil 1 sentabr holatiga koʻra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 11,6 mingta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida Toshkent shahrida 1038 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi.

**Sanoat statistikasi boʻlimi**

Tel.: (71) 203-88-16